

MULOQOT, MULOQOTNING SHARQONA KO'RINISHI, MULOQOT ORQALI TA'SIR ETISH

Olimov Temir Hasanovich

*Osiyo xalqaro universiteti professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: ushbu maqolada muloqot, muloqotning sharqona ko'rinishi, muloqot orqali ta'sir etish ning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Аннотация: В данной статье освещено научное и практическое значение общения, восточный взгляд на общение, влияние через общение.

Annotation: This article highlights the scientific and practical significance of communication, the Eastern view of communication, and influence through communication.

Kalit so'zlar: o'zaro ta'sir, munosabat, muloqot, muloqotga kirishish, notiq, voiz, qissaxon, maxsus san'at, mudarrislar, ta'lim-tarbiya, pand-nasihatlar

Dastlab “Muloqot”, “Pedagogik muloqot”, “Muloqotga kirishish”ni pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning ta'sir ko'rsatish xususiyatlarini ko'rib chiqaylik.

Muloqot odamlar o'rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishning ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Insonlar munosabatga kirishishda, avvalo, tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat bo'ladi.

O'zaro hamkorlik o'qituvchi va o'quvchilarning ijtimoiy – psixologik birligini nazarda tutadi. Dars jarayonida ko'p hollarda bunga e'tibor berilmaydi.

Muloqot orqali ta'sir etishning nazariy asoslari deganda, uning mohiyati, amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari, shuningdek, ushbu hodisani tavsiflovchi tushunchalar tizimi haqida tasavvurga ega bo'lishga imkon beruvchi bilimlar, qonuniyatlar, tamoyilar majmui tushuniladi.

Ko'pincha, boshqa bilim sohalarida to'plangan aloqa o'rnatish (kommunikatsiya)ning mohiyati haqida ma'lumotlarga murojaat qilmasdan, o'qituvchilar axborot almashinuvi omili muloqot usullarini egallash bilan bog'liq bo'ladi. Zero, pedagogik muloqot kasbiy hulq-atvorning bir shakli bo'lib, muayyan qoidalarga bo'ysunadi va antropologik, axborot, madaniy va ijtimoiy-psixologik shartlar hamkorligi asosida amalga oshiriladi.

Muloqot va muloqotga kirishishning mohiyati - o'zaro ta'sir – munosabatlar – aloqa. Pedagogik muloqotning tabiatini ko'rib chiqishni ta'lim kontekstida olingan umumiy, ilmiy va fanlararo bog'liqlik tushunchalariga murojaat qilishdan boshlasak, unda “o'zaro ta'sir”, “munosabat”, “muloqot”, “muloqotga kirishish” iboralari qo'llaniladi.

O'zaro ta'sir aosiy falsafiy kategoriyalardan biri bo'lib, turli ob'ektlarning bir-biriga ta'sirining o'zaro bog'liq jarayonlarini aks ettiradi. Bu to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, tashqi yoki ichki munosabatlarning bir turi. Haqiqatda yuzaga keladigan barcha bog'lanishlar majmuini ma'lum bir kontekstga nisbatan mazmunli ravishda aniqlangan xolda ushbu kategoriya doirasida tasvirlash mumkin. O'zaro ta'sir jarayonida uning ishtirokchilari o'rtasida ma'lumot almashish sodir bo'lganligi sababli, u universal ta'lim manbai bo'lib xizmat qiladi.

Muloqot – bu pedagogik o'zaro ta'sir shakllaridan biri bo'lib, uning doirasida ta'lim jarayonida ma'lumotlar oqimi amalga oshiriladi. Pedagogik maqsadlarda tashkil etilgan o'zaro ta'sir orqali

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

o'rganish yo'lga qo'yiladi, hulq-atvor namunalari tashkillashtiriladi, birgalikdagi faoliyat tajribasi yo'lga qo'yiladi, ta'lim jarayoi ishtirokchilarining o'quv-biluv dinamikasi ta'minlanadi, ularning faoliyati mazmunida motivlar va munosabatlar takomillashadi.

Pedagogik o'zaro ta'sir holatida ishtirokchilarning ichki jalb qilish darajasiga qarab u turli darajadagi holatlarda sodir bo'ladi: aloqa darajasi (maqsadli ma'lumot almashish), aloqa munosabati (shaxslararo darajadagi dialog), birgalikda faoliyat (ma'naviy birlik).

Munosabatlar kategoriyasi yordamida muayyan tizim elementlarining aloqalari va o'zaro bog'liqliklarining sifati va o'ziga xosligi tavsiflanadi. Ta'lim tizimlarida turli xil munosabatlar mavjud. Bu yerda ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarning sifati tomonlarning har birining faolligi o'lchovi (subyekt-obyekt, subyekt-subyekt, subyekt-obyekt-subyekt munosabatlari), shuningdek, ushbu jarayonning mazmuni bilan belgilanadi. Pedagogik o'zaro aloqa jarayonida boshqalar qatorida kommunikativ munosabatlar rivojlanadi.

Bundan tashqari, ular doimo pedagogik munosabatlarning ma'lum bir turiga o'rnatiladi: avtoritar, demokratik, gumanitar va boshqalar.

Muloqot – yunoncha so'z bo'lib, shaxslararo suhbat va o'zaro fikr almashuvi ma'nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro so'zlashuvida paydo bo'ladi.

Muloqot – axborot o'rtasida birgalikdagi fioliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishning ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning pedagogik jihati hisobga olinadi. Insonlar munosabatga kirishishda, avvalo, tilga murojaat qiladilar. Bu to'g'rida Sharq mutaqqakirlarining bildirgan fikrlari va ular asosida tashkillashtirilgan sharqona muloqot muhim pedagogik ahamiyat kasb etib, muloqot orqali ta'sir ko'rsatish va muloqotga kirishishning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan ta'minlashga xizmat qiladi.

Odamlarning mehr-oqibati, bir-birlariga nisbatan o'zaro hurmat – e'tiborda bo'lishlari, muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Halqimizda azaldan muloqotni salomlashish madaniyatidan boshlaganlar. Salomlashish turli xalqlarda har hil amalga oshiriladi. Xalqimizda salomlashish axloqlilikning yuksak namunasi sifatida e'tirof etilib, uning negizida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, shu millatning ruhiy xususiyatlari, o'zaro munosabatlarining ma'naviy asoslari, bo'lajak muloqotning xarakteri, o'zaro hamkorligi aks etadi. “Qur'oni Karim”da salomlashish odobi musulmon ahlining qat'iy majburiy burchi tarzida bayon etiladi: “Ey mo'minlar, o'z uylaringizdan boshqa uylarga to'z so'ramaguningizcha va o'y egalariiga salom bermaguningizcha kirmangiz. Kichik kattaga salom beradi, katta salomga alik oladi. Mana shu sizlar uchun yaxshiroqdir. Shoyad ushbu eslatmadan ibrat olsangizlar” deb ta'kidlanadi.

Ajdodlarimiz madaniy va ma'naviy merosi, ular yaratgan so'z, xalq tilining tunganmas boyligi muloqot uchun, muloqot orqali ta'sir etish uchun ahamiyat kasb etadi. Bu borada Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnakiy, Hisrav Dehlaviy, Abu Hamid G'azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq va G'arb donishmandlarining boy meroslarida farzandlar bilan muloqot o'rnatib, ularni kamolotga yetkazish pedagogik muammo sifatida targ'ib qilingan.

Ular so'zni va nutqni muloqotga kirishish uchun ilohiy ne'mat va xikmat deb bilishgan hamda har bir so'zning o'z o'rni va ahamiyati borligini, muloqotda so'zdan kuchliroq va qudratliroq narsa yo'qligini, tilga e'tibor – elga e'tibor ekanligini, so'z sehri mo'jizalar yarata olishini ta'kidlab kelganlar. Bularning barchasi mudarris va shogirdlarning samimiy muloqoti jarayonida amalga oshirilgan.

Muallim har bir o'quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati, odamlar bilan o'zaro muloqotida namoyon bo'lishini uqtirishgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot – azaldan insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi bo'lgan.

Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til – aloqa quroli sifatida ta'riflanadi. Shunga binoan halqda “Tilga e'tibor – elga e'tibor” degan naql keng tarqalgan.

Insonning tili shirin, muomala madaniyatiga ega bo'lsa, qasqa vaqt ichida xalq orasida obro'-e'tibor topadi. Ko'p gapirish hech qachon kishiga obro' keltirmaydi. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tilga, aytiladigan har bir so'zga hurmat bilan, o'ylab yondashish lozimligini uqtirib o'tganlar. O'qituvchi “so'z aytishdan avval har daqiqada so'z ortidan keladigan oqibatlarini o'yla'shi kerak (I.P.Pavlov). Shuningdek, qadimdan qolgan maqol bor “Avval o'yla, keyin so'yla” degan mashoyixlarimiz.

Amerika shoiri Rolf Emerson: “Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur qiladi” degan. Sharq mutafakkirlari ijodida til va nutq vositalari orqali notiq, voiz, badihago'y, qissaxon kabi maxsus san'at ahillari va mudarrislar diniy, ta'lim-tarbiyaviy, islomiy aqidalarni ommaga singdirishgani, pand-nasihatlar qilishgani bayon etiladi. Ushbu nutq sohiblari keng qamrovli bilimga, boy axborotga ega bo'lishgan.

Alisher Navoiy “*Voiz olimning o'zi avvalo halol ish ko'ruvchi bo'lishini, uning nasihatidan chiqmaslikni*” o'z asarlarida bayon etgan. Shuning uchun til shirinligi va notiqlik san'ati ustida ishlash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish har bir o'qituvchining eng asosiy ijtimoiy burchi va mas'uliyati bo'lishi bilan birga muloqot orqali ta'sir qilish usulidir. Chunki, ta'lim-tarbiya jarayonida til va nutqning ta'sir kuchi nihoyatda beqiyosdir.

Muloqot orqali ta'sir qilish va muloqotga kirishish o'z mazmuni va yo'nalishiga ko'ra:

-ijtimoiy yo'naltirilgan (keng jamoatchilikka karatilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan muloqot);

-guruhdagi predmetga yo'naltirilgan (o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish mobaynidagi muloqot-mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki konkret topishiriqni bajarish jarayonida guruh a'zolarining muloqoti);

-shaxsiy muloqot (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini ochish maqsadida o'rnatgan munosabatlari);

-pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni) kabi turlari mavjudligi bilan fikrlanadi.

Bu farqlanish qarama-qarshilik emas, balki o'zaro hamkorlik, demokratiya, insonparvarlikni o'zida ifoda etgan munosabatlar hisoblanadi. O'quvchilar bilan o'quv muassasalarida muloqot orqali ta'sir qilish va muloqotga kirishishda mazmun va u'nalishlarda nazarda tutilgan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Zero, bu maqsad jamiyat va o'quv muassasalarida pedagogik jarayonni belgilaydi.

Muloqot orqali ta'sir etish va muloqotga kirishishda o'qituvchi muloqotning subyektivi sifatida ishtirok etadi. Bunda o'qituvchining faoliyati bir qator tamoyillar bilan tartibga solinadi. Bular:

1. Maqsadlilik tamoyili. Bu tamoyil xabar aynan kimga qaratilganligini tushunish zarurligini nazarda tutadi.
2. Shaxsiy inklyuziya tamoyili – bu har ikki tomon ishtirokchilarining ichki faolligisiz haqiqiy kommunikativ aloqani o'rnatishning mumkin emasligini ko'rsatadi.
3. Mazmun tamoyili. Bu tamoyil muloqotga kirishda o'zaro ta'sir uchun ma'lum bir muloqot subyektining asosining majburiy xususiyatini belgilaydi.
4. Ishonchlilik tamoyili pedagogik muloqot jarayonida uzatiladigan mazmun uchun javobgarlikni nazarda tutadi.
5. Tushunishga yo'naltirilganlik tamoyili muloqotga kiruvchilarning xabarlarini tushunish va aloqaga kirishuvchini tushunishga yo'llashni o'rnatish zarurligini ta'kidlaydi.

6. Mavjudlik tamoyili axborotning murakkabligi mezoniga rioya qilish, shuningdek, zarur axborot kanaliga kirish uchun shart-sharoitlar yaratish zarurligini bildiradi.

7. Ochiqlik tamoyili muloqot doirasida o'qituvchi tomonidan manipulyativ (hiyla, nayrang) harakatlardan foydalanishning mumkin emasligiga e'tiborni qaratadi.

8. Axborot xavfsizligi tamoyili muloqotga kirishuvchilar shaxsining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixo-fiziologik va ijtimoiy- psixologik o'zgarishlarning oldini oluvchi qoidalarga rioya qilishni talab qiladi.

9. Teskari aloqa tamoyili pedagogik harakatlarni tuzatish uchun kommunikativ harakatlar natijalari va ta'sirini aniqlashni rag'batlantirishni nazarga tutadi.

Mazkur tamoyillarga asoslanib, muloqot orqali ta'sir etish va muloqotga kirishish faoliyatni maqsadga yo'naltiradi va kommunikativ qobiliyatni samarali, pedagogik – psixologik talablarga mos bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
7. Xolboyeva G., & Olimov, T. (2023). O'SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
8. Olimov T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.